

**“LOYIHALASH” METODI ASOSIDA INFORMATIKA DARSLARINI
TASHKIL QILISH AFZALLIKLARI**

*Niyazmetova Gulnora Shavkatovna
Xorazm viloyati Urganch tumanidagi
40- sonli mакtabning Informatika fani o'qituvchisi.*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Informatika faninining amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tishda “loyihalash” metodidan foydalanish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Ushbu usulning afzalliklari batafsил yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: interfaol o‘qitish, interfaol metod, loyihalash metodi, dialogli o‘qitish

Kompyuterlar dunyosida mikroprotsessorlar ishlab chiqarish bo‘yicha yetaksi o‘rinda turuvchi “Intel” kompaniyasi butun dunyoda “Obuchenie dlya budushego”-“Kelajak uchun o‘qitish” loyihasini taqdim etdi. Unga ko‘ra zamonaviy ta’limda vositalar va usullarni tanlashda katta darajada ochiqlik va erkinlik hamda pedagogik va axborot texnologiyalarining integratsiyasi XXI asrda o‘rganish va o‘rgatish uchun eng muhim jihatlar hisoblanadi. Ayniqsa pedagog va o‘quvchilarining shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirishi, axborot texnologiyalarining rivojlanishining hisobga olinishi bunda yetakchi o‘rinni egallaydi. Ta’limda loyihalar usulidan foydalanish internet tarmog‘i orqali hamkorlikda ishlab, amaliy va laboratoriya mashg‘uloti topshiriqlarini o‘zaro uzviy bog‘langan holda loyihalash o‘quvchilarining mustaqil ishslashga va kelajakda o‘z muammolarini mustaqil hal eta olishiga zamin bo‘ladi. Shuningdek hamkorlikdagi ta’lim o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro hamjihatlikni tarbiyalabgina qolmasdan, kelajakda hamkorlik shartnomalarini imzolab, yangi g‘oya va tashabbuslarni ishlab chiqishiga turtki bo‘ladi.

Maktabda informatika fanini o‘qitish va qo‘llash odatda ikkita mutlaqo boshqacha yondashuvdan birini bajaradi. Birinchisida asosiy e’tibor dasturlashga qaratiladi. Boshqa yondashuvda talabalar tayyor dasturlardan foydalanadilar. Ularning qiziqishi asosan dasturni amalga oshirish usuliga ahamiyat bermasdan, asosan dasturiy ta’milot bilan qamrab olingan mavzularga qaratilgan. Universitetlar va boshqa o‘qituvchilar malakasini oshirish institutlari oldida informatika fanidan ham, turli xil murakkablikdagi o‘quv dasturiy ta’milot tizimlarini ishlab chiqarish va ularga xizmat ko‘rsatishga qodir kishilarni o‘qitish vazifasi turadi.

O‘qituvchining asosiy pedagogik mahorati uning eng optimal uslublarni qo‘llagan holda o‘rgatish, yetkazib berish aynan o‘quv va laboratoriya mashg‘ulotlarida amalga oshadi. Shunday ekan, o‘quv mashg‘uloti jarayonini

tashkil qilishga to‘g‘ri, yangicha munosabat kerak. bu jarayonda o‘qituvchi oldida muhim bir masala turadi, u ham bo‘lsa ta’lim oluvchilarini bilim olishga jalb qilish hamda qiziqtira olishdir. Zamonaviy o‘quv mashg‘uloti faqat o‘qitishning metod va shakllari bilan cheklanib qolmay, balki ta’lim-tarbiya, rivojlantirish maqsadlarini amalga oshirish, o‘qituvchi va ta’lim oluvchi faoliyatida bирgalikdagi o‘zaro bog‘liqlikni ro‘yobga chiqarishni talab qiladi. O‘quv mashg‘uloti o‘qituvchidan ijodiy pedagogik tafakkur, pedagogik mahoratni talab qiladi. Uning o‘qitish vositalari, uning ijodkorligi, ko‘p qirrali bilimi, faoliyatiga asoslanadi. O‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish, ularning muvaffaqiyati o‘qituvchining nazariy va kasbiy tayyorgarligiga bog‘liq. O‘quv mashg‘ulotiga tayyorlanish jarayonida o‘qituvchi shu fanga qarashli, psixologik pedagogik, metodik kitoblar, jurnal va gazetalarni muntazam ravishda o‘qib borishi, badiiy adabiyot, internetdan foydalanishi kerak. O‘quv mashg‘uloti jarayonida vositalar turli bo‘lishi mumkin. Bu o‘qituvchining ixtisosligi, qiziquvchanligi, ehtiyojlari, intellektual faolligiga bog‘liq. Albatta, bunda o‘rganilayotgan mavzu mazmunini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Aynan loyihalash metodini o‘quv mashg‘ulotida qo‘llash uchun pedagog oldindan loyihani yaratishda tashkiliy chora tadbirlarni ishlab chiqishi va guruhni kichik guruhlarga bo‘lib, loyiha topshirig‘i mazmuni bilan tanishtirishi kerak. Bunda pedagog internet tarmog‘idan xavfsiz, ma’suliyatli va maqsadga yo‘naltirilgan holda o‘quvchilar tomonidan foydalanishning zaruriy usullarini o‘rgatishi va doimiy nazorat qilib borishi kerak bo‘ladi. Tajribali o‘qituvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning o‘quv mashg‘ulotidagi muhim joylari, qaysi joyini eslab qolish, qaysi joyidan shunchaki xabardor bo‘lishi kerakligi aniqlanadi. O‘quv mashg‘ulotining qanday bo‘lishi o‘qituvchining ijodkorligi va mahoratiga bog‘liq. Ilg‘or pedagogik texnologiya bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotini loyihalashda o‘qituvchining tayyorgarligi muhim hisoblanadi. Kuzatish va tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, bu faoliyatda o‘qituvchilar jiddiy qiyinchilikka uchraydi va bu ulardan yuqori malaka hamda tajribaga ega bo‘lishni talab qiladi. chunki bunda aniq ko‘rsatmalar tuzish nisbatan ko‘proq ijodiy yondashishni talab qiladi. O‘quvchilar tomonidan har qanday yaratilgan dasturiy mahsulot yoki ishlar loyihadan kutilayotgan natijani yaxshiroq tushunishga imkon beradi va o‘qitish tadbirlarini yaxshilaydi. bular haqida to‘liq tushuncha berilishi kutilayotgan natijaning yuqori bo‘lishi uchun xizmat qiladi. O‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha qilinadigan ishlar asosan ikki qismidan iborat bo‘lishi lozim: mashg‘ulot loyihasini tayyorlash va uni amalga oshirish. Mashg‘ulot loyihasini tayyorlash o‘qituvchi tuza olish faoliyatining mahsuli bo‘lib, qator umumiyl xususiyatlarga ega. Loyiha asosida o‘qituvchi va ta’lim oluvchilarning kelajakda bирgalikda amalga oshiradigan faoliyati yotadi.

Pedagog – fan o‘qituvchisi o‘quv loyihasini samarali baholash usullarini oldindan ishlab chiqishi ham katta ahamiyatga ega. bu esa XXI asr mahorati

loyihalari bo'yicha o'quvchilar faoliyatini rivojlantiradi. Guruhdagi har bir o'quvchining alohida jihatlari, imkoniyatlari, qiziqishlari, fikrlari bir nuqtada birlashib, katta umumiy loyihaga aylanadi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, loyihalar usuli o'quvchilarni qiziqishlariga va mustaqil bo'lishlariga turtki bo'ladi, ularning turlicha qiziqishlarini qo'llab quvvatlaydi. hozirgacha o'quv mashg'ulotlarini loyihalash bo'yicha olimlarimiz o'zlarining turlicha qarashlarini taklif etib kelishgan. Lekin mazkur maqolada yoritilgan loyihalash usuli asosida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish o'z samaradorligi bilan ajralib turadi hamda ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda rivojlantirishda muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yuldashev U.Yu., boqiev R.R. Informatika o'qitish metodikasi. – T.: Talqin, 2005
2. Levin A. Samouchitel raboti na kompyutere. – SPb.: Piter, 2003.
3. kreynak, djoy. Ensiklopediya Internet [Per. s angl. Ye. kleymenova]. – SPb.: Piter, 2003.